

Namoz - dinning ustuni



14:02 / 08.11.2018 6339

Ey, farzand!

Bomdodni o'qigach, masjidan chap oyoq bilan chiqiladi va shunday duo qilinadi:

«Allohim! Menga fazlu karaming bilan rahmat eshiklarini och!»

O'ng oyoq tashqariga olinayotganda shunday niyat qilinadi:

«Allohim! Peshin namozini o'qishimni menga nasib ayla!»

Peshinni o'qib asrga, asrni o'qib shomga, shomni o'qib xuftonga, xuftonni o'qib bomdodga niyat etgan kishining daftariga kecha-kunduz namoz o'qigan savobi yoziladi.

Bir hadisi shariflarida Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat etadilar:

«Amallar niyatlarga ko'radir. Kim nimani niyat qilsa, o'shaning natijasini ko'radi».

Niyatsiz amal bo'lmaydi, ya'ni niyatsiz amal amal emas. Niyati qilinib, yaxshi, tugal, o'rinli qilinmagan amal ham daftarda amal qilinmagan deb yoziladi.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat qiladilar:

«Namoz - dinning ustunidir. Namozni mukammal o'qigan dinini mukammal qiladi. Namozni buzgan dinni buzadi. Namoz - barcha ibodatlardan afzaldir. Namozni jamoat bilan o'qimoq, yolg'iz o'qigandan yigirma besh, yigirma yetti daraja afzaldir».

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat etadilar: **«Jamoat bilan namoz o'qishni uzrsiz tark etib, uyida yolg'iz o'qigan kishi faqat qarzini o'taydi. Yigirma yetti darajali jamoat savobidan mahrumbo'ladi».**

Namozlarni kechiktirmasdan vaqtida o'qish kerak. Vaqtning o'rtasida o'qishning ham zarari yo'q. Faqat hech qanday zaruratsiz kechiktirish to'g'ri emas. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallam marhamat etadilar:

«Me'roj kechasi jahannam menga ko'rsatilganda ko'rdimki, bir guruh kishilarni zaboniylar gurzi bilan boshlariga urib, ularning miyalarini parchalashmoqda. «Bu shaklda jazolanayotganlar kimlar?» deya Jabroil alayhissalomdan so'radim. U zot bu kishilar zaruratsiz namozni kechiktirganlar ekanini aytdilar». Har namozni kirgan vaqtida yoki o'rta vaqtida o'qish kerak. Namozni uzrsiz kechiktirishdan saqlanish lozim. Namozni vaqtida o'qimagan kishi savobdan mahrum bo'ladi. Namozni ba'zan o'qib, ba'zan o'qimagan kishining ham ahvoli qo'rqinchli. Chunki bu odam namozni jiddiy qabul qilmagan sanaladi.

“Ey, farzand!” kitobidan